

**O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA
QILISH MEXANIZMLARI: OILAVIY ZO‘RAVONLIK TUSHUNCHASI,
JINOYAT TARKIBI VA JAZO CHORALARI**

Yodgorova Zebo Nurbek qizi

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Yurisprudensiya (Islom huquqi) 2-bosqich
talabasi Toshkent, O‘zbekiston, e-mail: zeboyodgorova77@gmail.com
tel: +998935460512*

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston qonunchiligida ayollar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari va oilaviy zo‘ravonlik tushunchasi tahlil qiladi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida ayollarning tengligi, huquqlarini himoya qilishga bag‘ishlangan normalar ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, maqolada oilaviy zo‘ravonlikning turlari, uning salbiy oqibatlar va O‘zbekiston qonunchiligida bunday huquqbuzarliklarni bartaraf etish mexanizmlari yoritilgan. Maqola O‘zbekiston qonunchiligida ayollar huquqlarini himoya qilish sohasidagi muommolarni aniqlab beradi hamda bu borada qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar beradi.

Kalit so‘zlar: Ayollar huquqlari, gender tengligi, genderga oid audit, himoya orderi, oilaviy zo‘ravonlik

Abstract: This article analyzes the mechanisms for protecting women's rights and the concept of domestic violence in the legislation of Uzbekistan. The article examines the norms of the Constitution and other laws of the Republic of Uzbekistan on the equality and protection of women's rights. At the same time, the article highlights the types of domestic violence, its negative consequences, and the mechanisms for eliminating such offenses in the legislation of Uzbekistan. The article identifies the problems in the field of protection of women's rights in the legislation of Uzbekistan and provides proposals for improving the legislation in this regard.

Key words: Women's rights, gender equality, gender audit, protection order, domestic violence

Ayollar huquqi inson huquqlarining ajralmas qismidir. Ayollarning aynan ayol bo‘lganligi bois ba’zi huquqlardan kamsitilayotganligi uchun inson huquqlaridan alohida huquq sifatida shakllanishiga olib keldi. Jinsiga qarab diskriminatsiya qilish, unga barham berish choralari qo‘llash zarurligi, samarali ishlashi bugungi kunda ham nafaqat O‘zbekiston, balki xalqaro jamoatchilikning birinchi galdagi maqsadlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, demokratik, huquqiy davlat qurish yo‘lida bir qancha islohotlarni amalga oshirdi. Shulardan biri ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi rolini oshirish kabi tadbirlar olib borildi, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shuningdek, ayollarning shaxsiy huquq va erkinliklarining kafolati bugungi kunda har bir rivojlangan mamlakat fuqarolari farovonligining ta’minlanganining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Ayollar huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmlari deganda o‘z faoliyati davomida ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan davlat va nodavlat organlarini tushunamiz¹⁵. Bu mexanizmlar ayollarning sog‘liqni saqlash, ta‘lim, siyosat, mehnat, oila va boshqa muhim sohalarga yo‘naltirilgan. Mana shu mexanizmlar orqali ayollarga o‘z huquqlarini bilish, ularni qo‘llab-quvvatlash, har qanday zo‘ravonlikdan himoya qilish imkoniyatini beradi. Davlat organlari mexanizmlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, hukumatni, mahalliy hokimiyat organlarini, huquqni muhofaza qilish organlarini, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarni kiritishimiz mumkin.¹⁶

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti inson huquqlari va erkinliklari, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir. Ayollar va erkaklarning tengligi, ayollarning kamsitilmasligining huquqiy asoslarini birinchi navbatda Konstitutsiyamizda ko‘rish mumkin. Uning 19, 42, 58, 78, 77, 78 -moddalarida bevosita ayollar huquqining konstitutsiyaviy kafolati mustahkamlangan. Bu kafolatlarning kafili sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini ko‘rish mumkin. Shuningdek, Prezident tomonidan 1997-yilning “Inson manfaatlari yili”, 1998-yilning “Oila yili”, 1999-yilning “Ayollar yili”, 2000-yilning “Sog‘lom avlod yili”, 2001-yilning “Onalar va bolalar yili”, 2012-yilning “Mustahkam oila yili”, 2016-yilning “Sog‘lom ona va bola” yili deb e‘lon qilinishi va mamlakatda ayollarning ijtimoiy rolini oshirishga oid qabul qilinayotgan farmonlarini keltirish mumkin. 1995-yil 2-martda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida ayollar rolini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi. Ushbu Farmon bilan davlatda ayollarning faoliyat doirasi ko‘rsatib o‘tildi va shu asnoda, ularning yuqori fuqarolik maqomi belgilab berildi. Bu Farmon bilan respublika ayollari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish masalalarini hal etishga jalb etildi, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki faollashtirildi.¹⁷

2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi” qonun ayollarning huquqlarini himoya qilishning normativ asoslaridan biridir. Ushbu qonunning e‘tiborli jihati shundaki, har bir sohada ayollarning tengligi, normativ-huquqiy hujjatlar ustidan gender huquqiy ekspertiza joriy qilinganligi, davlat organlari tomonidan gender statiskasini o‘tkazilishi, milliy mexanizmlarning vakolatlari kabi qoidalarni o‘z ichiga olgan. **6-modda. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash kafolatlari**

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog‘ida teng huquqlilikni kafolatlaydi.

¹⁵ Inson huquqlari: darslik/A.RMo‘minov, M.A. Tillaboyev.T.: Adolat B-360

¹⁶ Inson huquqlari: darslik/A.RMo‘minov, M.A. Tillaboyev.T.: Adolat B-360

¹⁷ Inson huquqlari: darslik/A.RMo‘minov, M.A. Tillaboyev.T.: Adolat B-361

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta‘minlanishini kafolatlaydi.

Xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta‘minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko‘riladi.

Ushbu moddada ham bilishimiz mumkinki, davlat ayollarning barcha sohadagi huquqlarini kafolatlamogda, har qanday kamsitishni rad etmoqda. Qonunda **genderga oid audit** tushunchasi kiritilgan. **Genderga oid audit** — davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida, shu jumladan kadrlar siyosatini olib borishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi holatini, shuningdek genderga doir kompleks yondashuvni o‘rganish va baholash. Ushbu Qonun esa genderga oid audit o‘tkazishning huquqiy asoslarini mustahkamlaydi, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari ta‘minlanishini, shuningdek ushbu sohada jamoatchilik nazorati o‘tkazilishini kuchaytirishga xizmat qiladi. O‘ylaymanki, genderga oid audit yaqin kelajakda institut sifatida shakllanib , inson huquqlari , ayniqsa ayollar huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmi sifatida chiqishi mumkin . Chunki uning vazifalarida boshqa mexazimlar kabi gender tengligini ta‘minlash qoidalar belgilangan .

8¹-modda. Genderga oid auditning asosiy vazifalari

Genderga oid auditning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

davlat organlari va tashkilotlarida xotin-qizlar va erkaklar sonining nisbatini o‘rganish;

davlat organlari va tashkilotlari o‘z faoliyatini genderga doir kompleks yondashuv asosida tashkil etganligi holatini o‘rganish;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasidagi qonunchilikning ijro etilish holatini baholash;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Ushbu vazifalar yanada kengaytirilsa va qo‘shimcha vakolatlar berilsa , mehnat munosabatlarida , kadrlarga oid siyosatda ayollarning tengligini ta‘minlash o‘sishi mumkin .

Ayollar huquqini himoya qilishning milliy mexanizmlaridan biri Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi **Oila va xotin-qizlar qo‘mitasidir** . Qo‘mita oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi hamda o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunadi. Qo‘mitaning asosiy vazifalariga oila va xotin -qizlarning muommolarini aniqlash , ularga ijtimoiy-huquqiy ,

og‘ir ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatish , qishloq joylardagi xotin-qizlarni xususiy va oilaviy tadbirkorlikka , hunarmandchilikka jalb etish , mehnat bozorida o‘z o‘rnini egallashga ko‘maklashish , shuningdek ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini oshirish kabilar kiradi .

Qo‘mita bir nechta tuzulmalardan iborat . Bularga quyidagilar kiradi :Qo‘mita markaziy apparati; Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Toshkent shahar va viloyatlar oila va xotin-qizlar boshqarmalari ,tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limlari ,“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti; Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi; respublika va hududiy “Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari”;Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti komissiyasi; Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlar , “Oila va jamiyat” gazetasi, “Saodat” jurnali, “Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila” xalqaro ilmiy jurnali

O‘zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilishda milliy institutlarning o‘rni va roli ahamiyatlidir .Bunday milliy institutlarga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) instituti , O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti , Inson huquqlari bo‘yicha milliy markazini keltirish mumkin. Bunday milliy institutlar xotin-qizlar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar, qonunlar, qonunosti hujjatlarning joylarda qanday bajarilayotganligi yuzasidan monitoring ishlarini olib boradi. Ombudsman va Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz ayollar huquqlarining buzilish fakti bo‘yicha fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqadilar.

Ma’lumki, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1979 yil 18 dekabrda Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya qabul qilingan.

Ushbu Konvensiyaga O‘zbekiston 1995 yil 6 mayda qo‘shilgan. Konvensiyaning bajarilishi bo‘yicha O‘zbekistonning Oltinchi davriy ma’ruzasi BMT Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish qo‘mitasining 2022 yil 15-16 fevral kunlari bo‘lib o‘tgan 81-sessiyasida ko‘rib chiqildi.

O‘zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilishning milliy tizimi yaratilgan va u oltita yo‘nalishdan iborat. Birinchidan, bu borada zarur huquqiy baza yaratilgan; ikkinchidan, tegishli institutsional tizimga asos solingan; uchinchidan, muayyan o‘quv-tarbiya ishlari yo‘lga qo‘yilgan; to‘rtinchidan, sohaga oid qonunlar ijrosining monitoringi olib borilmoqda; beshinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanilmoqda; oltinchidan, ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro hamkorlik izchil amalga oshirilmoqda.¹⁸

Shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha milliy markazda ayollar huquqlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari olib borilmoqda . Masalan, 2023-yilning 6- 7 -sentabr kunlari Inson huquqlari bo'yicha milliy markazda "Ayollar huquqlari himoya qilish: xalqaro va milliy mexanizmlari" mavzusida o'quv kurslari tashkil etildi. Bu mashg'ulotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7- fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturi doirasida o'tkazildi. Bunday o'quv kurslar ayollar huquqlariga oid bilimlarni, zo'ravonliklarga uchragan ayollarga yordam berish chora-tadbirlari kabi ma'lumotlarni olishga yordam beradi va amaliyotda boshqa shaxslarga yetkazish , ayollarning o'z huquqlarini bilishga ko'maklashish orqali ma'lum bir maqsadga erishiladi .

Ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan milliy mexanizmiga mamlakatimizda tashkil etilgan nodavlat mexanizmlari ham kiradi .Ularga Kasaba uyushmalari , "Ijtimoiy fikr " ,siyosiy partiyalar , "Sog'lom avlod uchun" nodavlat tashkiloti kabi jamiyatning barcha a'zolarini qamrab oluvchi nodavlat tashkilotlari , "Mehri " xotin -qizlar jamiyati , ,, Tadbirkor ayollar" nodavlat tashkiloti , „Sabr “ ishonch markazi kabilar faqat ayollar huquqlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan nodavlat tashkilotlaridir .

2020-yilda ishlab chiqilgan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi bu soha bo'yicha yangi dastur bo'ldi . Unda inson huquqlarini har sohada yanada takomillashtirish, soha bo'yicha o'quv dasturlarini joriy etish , BMT ustav organlari shartnomaviy qo'mitalarining tavsiyalarini hisobga olgan holda milliy qonunchilikka implementatsiya qilish , xalqaro majburiyatlarni bajarish, O'zbekistonni inson huquqlari va erkinliklariga oid sohasida xalqaro reyting va indekslar bo'yicha dunyodagi 50 ta yetakchi davlat qatoriga kiritishni ta'minlash kabi ustuvor maqsad va vazifalar belgilangan . Milliy strategiyada oila institutini mustahkamlash bo'yicha ishlar tubdan qayta ko'rib chiqilganligi , bu bo'yicha konsepsiya qabul qilinib ,uning mazmunida oilaviy mojarolarni hal etish mexanizmlari, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish masalalari o'rin olganligi keltirilgan . Shuningdek, strategiyada qaror qabul qilish bilan bog'liq ishlarda ayollar rolini oshirish,jamoatchilik ongida erkaklar va ayollarning o'rni haqidagi tushunchalarni o'zgartirish kerakligi belgilangan . Ayollarning mehnat sohasidagi qonunchilikka ba'zi o'zgartirish, xotin -qizlar uchun taqiqlangan kasbiy faoliyat sohalarini qisqartirish, ayollar sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tarmoqlar yoki kasblar ro'yxatini aniqlash kabi vazifalar ham belgilangan. Milliy strategiyada ayollar huquqlariga oid siyosatning belgilanganligi quvonarlidir.

Oilaviy zo'ravonlik

**Milliy markazining
matbuot xizmati**

UzDaily.uz

“Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetolari tahririyati

Zo‘ravonlik -xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazish choralari qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik) Zo‘ravonlik quyidagi turlari bor : jismoniy , jinsiy , ruhiy va iqtisodiy zo‘ravonlik .

1993 – yil iyun oyida Venada bo‘lib o‘tgan Inson huquqlari bo‘yicha II Butunjahon konferensiyada “Oiladagi zo‘ravonliklar” mavzusi muhokama qilindi.

Mazkur muammoning dolzarbligi jahondagi ko‘plab mamlakatlarda uydagi zo‘ravonliklar keng tarqalganligi bilan izohlanadi. Ayollar muammosi bo‘yicha

1995-yil sentabrda Pekinda bo‘lib o‘tgan BMT IV anjumanida uydagi zo‘ravonlikni ko‘pgina mamlakatlar uchun xos bo‘lgan “yuqumli kasallikdir” deb e’lon qildi. Oiladagi zo‘ravonlik – bu o‘z yaqinlariga nisbatan hukmronlik va nazoratni qo‘lga kiritish uchun jismoniy, jinsiy, og‘zaki, psixologik hamda iqtisodiy haqorat, shuningdek, bosim siklining tezligini oshirish bilan takrorlanuvchi zo‘ravonlikdir.

Haqiqatdan ham oilaviy zo‘ravonlik birgina mamlakatni emas , balki ko‘pgina davlatlarni tashvishga solib kelayotgan muommolaridan biridir .

Shu o‘rinda oilaviy zo‘ravonlikning yuzaga kelishi va namoyon bo‘lishidagi asosiy omillarga quyidagilar kirishi mumkin:

- madaniy omil. Bilamizki, ko‘plab o‘zbek oilalarida erkak – oila boshi, asosiy boquvchi sifatida ulug‘lanadi. Bunday patriarxal tipdagi oilalarda ko‘pincha ayollar va bolalarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik oddiy hol sifatida qabul qilinadi;

- ijtimoiy omil – oila jamiyatning quyi qatlamiga mansubligi, alkogol yoki psixotrop moddalarga tobeligi, oila a’zolaridan birining kriminal guruhlariga kirib qolganligi;

- iqtisodiy omil – er-xotinlardan faqat bittasining mehnat faoliyati bilan bandligi, shubhasiz, bu bir shaxsning boshqasiga to‘liq moliyaviy tobeligiga sabab bo‘ladi. Bunda oila boshlig‘i, ya’ni erkakning mehnat migratsiyasiga chiqib ketishini ham aytib o‘tishimiz mumkin. Chunki ayol uyda bolalar tarbiyasi, uy yumushlari bilan band bo‘lganicha faqat turmush o‘rtog‘i yuboradigan mablag‘ga qaram bo‘lib qoladi;

- huquqiy omil. Garchi qonunchiligimizda oilaviy zo‘ravonlikdan himoyalash to‘g‘risidagi qonunlar mavjud, shuningdek, himoya orderini berish tizimi amaliyotga tatbiq etilgan bo‘lsa-da, aholining katta qismi huquqiy jihatdan yetarlicha savodli bo‘lmaganligi bois, oilaviy zo‘ravonlik muammosiga yechim topishni bilmaydi.

Oilaviy zo‘ravonlikning eng og‘ir uqubatlardan biri farzandlar ruhiy holati va axloqiga yetkaziladigan jiddiy zararda. Bunda asosiy jabrlanuvchi ayol bo‘lsada, zo‘ravonlikning oqibati farzandga salbiy ta’sir ko‘rsatadi . Amaliyotda ba’zi oilalarda ayollarda mentalitetimizda oilada yuzaga keladigan muommolar haqida sukut saqlash kerak degan qarashlarning mavjudligi muommoni yashirishga majbur qiladi.

O‘zbekiston qonunchiligida 2023-yilgacha oilaviy zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanmagan edi. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi

O‘RQ 829-sonli Qonuniga asosan Jinoyat kodeksining 126-moddasi Oilaviy (maishiy)zo‘ravonlikka bag‘ishlandi .Qonun loyihasida avvalda faqat oilaviy zo‘ravonlikka ta’rif berib o‘tilgan , jazo choralari ko‘rsatilmagan edi . Bu organlarning e’tiroziga sabab bo‘ldi va jazo choralari belgilandi. Chunki oilaviy zo‘ravonlik shunchaki oddiy bir holat emas , balki haqiqiy jinoyatdir. Zo‘ravonlarning jinoiy javobgarlikka tortilmasligi , O‘zbekiston Respublikasi xalqaro darajadagi qabul qilgan ayollar huquqini himoya qiluvchi hujjatlarga amal qilmasligi ,majburiyatlarini bajarmasligini anglatadi . Quydagi Jinoyat kodeksining 126¹--moddasida darajasi yuqori zo‘ravonlik uchun jazo chorasi berilgan :

Xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo‘lgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish natijasida ko‘rish, so‘zlash, eshitish qobiliyatini yo‘qotishga yoxud biron a‘zoning ishdan chiqishiga yoki uning funksiyalari tamoman yo‘qolishiga, ruhiy holatning buzilishiga yoki sog‘liqning boshqacha tarzda yomonlashuviga, umumiy mehnat qobiliyatining o‘ttiz uch foizidan kam bo‘lmagan qismining yo‘qolishiga yoki homilaning tushishiga yoxud badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishiga sabab bo‘lsa, —

besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning [oltinchi qismida](#) nazarda tutilgan harakatlar:

- a) homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan;
- b) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;
- v) o‘ta shafqatsizlik bilan;
- g) g‘arazli niyatlarda;
- d) diniy taassublar zamirida;
- e) bir guruh shaxslar tomonidan;
- j) qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ashyolarni ishlatib sodir etilgan bo‘lsa, —

yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning [oltinchi qismida](#) nazarda tutilgan harakatlar:

- a) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;
- b) takroran, xavfli retsidivist tomonidan yoki ilgari ushbu Kodeksning [97](#) va (yoki) [104-moddalarida](#) nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;
- v) o‘ta xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa;
- g) jabrlanuvchining o‘limiga sabab bo‘lsa, —

o‘n yildan o‘n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek,BMTning tavsiyaviy xarakterdagi xulosalarini inobatga olib , milliy qonunchilikka implementatsiya qilmoqda . Misol uchun BMTning xotin-qizlarga

nisbatan zo‘ravonlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalarida ham himoya orderlarining buzilishi jinoiy javobgarlikka tortilishi kerakligi ko‘rsatilgan.

Milliy qonunchilikda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishga doir bir qancha turlari berilgan .”Xotin qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tog‘risida”gi qonunning 21-moddasida quyidagilar belgilab o‘tilgan:profilaktika xizmatini ko‘rsatish , himoya orderini berish , tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha maxsus markazlarga joylashtirish;zo‘ravonlik xulq-atvorini o‘zgartirish bo‘yicha tuzatish dasturlaridan o‘tish.

Himoya orderi — tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi, xotin-qizlarga tazyiq o‘tkazayotgan yoki ularga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgan shaxsga yoxud bir guruh shaxslarga nisbatan belgilangan ta’sir ko‘rsatish choralari qo‘llanilishiga sabab bo‘ladigan hujjat.¹⁹ Himoya orderi ichki ishlar tomonidan beriladigan, ayollar huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Order o‘ttiz kungacha beriladi va ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlab hisoblanadi. Arizachining iltimosiga,tegishli organ holatni kuzatib, uni bir yilgacha uzaytirish mumkin.

O‘zbekiston qonunchiligida ayollar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining kuchli tomonlaridan biri ularning normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanib qo‘yilganligidir . Har bir ayollar huquqlarini himoya qiluvchi vakolatli organning vazifalari qonunlarda o‘z aksini topgan . Shuningdek milliy mexanizmlar, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalarining mexanizmini o‘ziga paradigma qilib olish yo‘lida ketmoqda . Yana aytish mumkinki, ayollar huquqlarini himoya qilishda O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchidir . Bu esa, boshqa sohalarda O‘zbekistonning rivojlangan davlatlar bilan yaxshi aloqalarni o‘rnatishga ham yordam beradi .

Ammo qonunchilikda belgilangan mexanizmlar amaliyotda ba’zida o‘z tasdig‘ini topmaydi . Bunga misol qilib, himoya orderini olgan shaxslar, yana bir necha marta zo‘ravonlikka duchor bo‘lmoqda . Balki, zo‘ravon shaxslar uchun javobgarlik yetarli bo‘lmayotganligi va ba’zida javobgarlikdan oson qutilib qolishlaridan ayollar qayta tazyiq va zo‘ravonlikka uchramoqda . Bundan tashqari, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, ularga yordam ko‘rsatish va maslahat berish bo‘yicha ishonch telefon raqamlarini yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotganligini keltirish mumkin. Yana shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, oilaviy zo‘ravonlikning davom etishi ayollarning o‘z huquqlarini bilmasligida deb aytish mumkin. Shunday holatlar borki, ayollar tazyiqqa yoki zo‘ravonlikka uchrasa qayerga murojaat qilishlarini ham bilmaydi .

¹⁹ Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Qonuni

Oxirgi vaqtlarda zo‘ravonlikka oid jinoyatlarning soni ortib borayotganligi , ularning har xil ko‘rinishda namoyon bo‘lishi , bularning oldini olish uchun qonunchilik va mexanizmlar faoliyatini yanada takomillashtirishni taqozo qiladi ..

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ayollar huquqlarini ta‘minlash tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni va ularni amaliyotda amalga oshirish tartibotlarini yanada kuchaytirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining bu boradagi sa’y-harakatlarini birlashtirish, ayollar huquqlarini himoya qilish masalalarini hal etish aholining huquqiy madaniyatini oshirishga bog‘liq. Bunda faqat jismoniy shaxslarni emas, balki mansabdor shaxslarning ham huquqiy madaniyatini , qonunga rioya etishini nazarda tutish kerak .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Mo‘minov, M. Tillabayev Inson huquqlari darslik.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
3. Xotin- qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi Qonuni
4. Xotin qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikda himoya qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2- sentabrdagi Qonuni
5. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni